



2. Matyakubova N, Mashina tarjiması turları va ularning qiyosiy tahlili (2024), 519-521.
3. Леонтьева Н. Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы: учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 303 с.
4. Дроздова К. А. Машинный перевод: история, классификация, методы. Журнал СЛОВО МОЛОДЫМ, Москва, 2015.
5. www.vas3kblog.com
6. O‘zbek tili paralel korpusining lingvistik masalalari — Abduraxmonova N., Vasliddinova K. (2024).
7. Korpusga asoslangan mashina tarjiması uchun ikki tilli frazeologik lug‘at yaratishning lingvistik ahamiyati — Sirojiddinova M. (2024).
8. Korpusga asoslangan mashina tarjiması uchun ikki tilli frazeologik lug‘at yaratishning lingvistik ahamiyati — Sirojiddinova M. (2024).

INTERNET TILI VA UNING TIL MADANIYATIGA TA’SIRI

Ilmiy rahbar: Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti, Umumiy pedagogika kafedrası (PhD) dotsent

Abdullayeva Shodiyona Imomboy qizi

E-mail: shodiyona844@gmail.com

Azamxonova Mohina Mansurxon qizi

E-mail: mohina304@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tili va uning zamonaviy til madaniyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Internet tili – bu raqamli kommunikatsiyada qo‘llaniladigan o‘ziga xos lingvistik hodisa bo‘lib, u qisqartmalar, emoji, memlar, inglizcha so‘zlarning o‘zlashuvi hamda yangi so‘z shakllari orqali ifodalanadi. Tadqiqotda internet tilining yoshlar nutqiga, adabiy til me’yorlariga va yozma nutq madaniyatiga ijobiy hamda salbiy jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, internet tili globalizatsiya jarayonida milliy tilning saqlanishi va rivojlanishiga qanday ta’sir qilayotgani haqida ham fikr yuritiladi.

Internet tili tezkorlik va qulaylikni ta’minlasa-da, u ba’zan tilning normativ qoidalariga putur yetkazadi. Shu sababli, internetdagi til madaniyatini shakllantirish va foydalanuvchilarda til mas’uliyatini oshirish muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: internet tili, til madaniyati, kommunikatsiya, globalizatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, o‘zgarish, lingvistika, axborot texnologiyalari

THE LANGUAGE OF THE INTERNET AND ITS INFLUENCE ON LANGUAGE CULTURE

Scientific Supervisor: Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University, PhD, Associate Professor, Department of General Pedagogy

Abdullayeva Shodiyona Imomboy qizi

E-mail: shodiyona844@gmail.com

Azamxonova Mohina Mansurxon qizi

E-mail: mohina304@gmail.com

2nd Year Students, Faculty of Tourism, Chirchik State Pedagogical University

Annotation: This article analyzes the language of the Internet and its impact on modern language culture. Internet language is a unique linguistic phenomenon used in digital communication that includes abbreviations, emojis, memes, borrowed English words, and newly created expressions. The study highlights both the positive and negative effects of Internet language on youth speech, literary language norms, and writing culture. It also explores how Internet communication influences the preservation and development of national languages in the context of globalization. Although Internet language promotes convenience and creativity, it sometimes threatens the grammatical and stylistic norms of standard language. Therefore, developing users’ linguistic awareness and promoting responsible language use online is essential for maintaining cultural and linguistic diversity.



Keywords: Internet language, language culture, communication, globalization, social networks, linguistic change, digital discourse, information technology

ЯЗЫК ИНТЕРНЕТА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЯЗЫКОВУЮ КУЛЬТУРУ

Научный руководитель: Очилова Хурсаной Махмуд кизи

Доцент Чирчикского Государственного Педагогического Университета, Доцент (PhD), кафедра
общей педагогики

Абдуллаева Шодиёна Имомбой кизи

E-mail: shodiyona844@gmail.com

Азамхонова Мохина Мансурхон кизи

E-mail: mohinaa304@gmail.com

Студенты 2 курса Факультета Туризма Чирчикского Государственного Педагогического
Университета

Аннотация: В данной статье рассматривается язык Интернета и его влияние на современную языковую культуру. Интернет-язык представляет собой особое лингвистическое явление, используемое в цифровом общении, которое включает сокращения, эмодзи, мемы, заимствования из английского языка и новые формы слов. В исследовании освещаются положительные и отрицательные стороны влияния интернет-языка на речь молодежи, нормы литературного языка и культуру письменной речи. Также анализируется воздействие интернет-коммуникации на сохранение и развитие национальных языков в условиях глобализации. Несмотря на удобство и динамичность интернет-языка, его чрезмерное использование может привести к снижению языковой грамотности. Поэтому важной задачей становится формирование ответственного отношения пользователей к языку и развитие цифровой языковой культуры.

Ключевые слова: язык Интернета, языковая культура, коммуникация, глобализация, социальные сети, лингвистические изменения, цифровая среда, информационные технологии

Kirish:

Bugungi globallashuv davrida internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi insonlar o’rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o’zgartirdi. Avvallari muloqot asosan og’zaki yoki yozma shaklda amalga oshirilgan bo’lsa, hozirda bu jarayon elektron makon – ya’ni internet orqali kechmoqda. Shu bilan birga, internet tili deb ataluvchi yangi lingvistik hodisa shakllandi. U o’zida turli xil qisqartmalar, inglizcha so’zlarning o’zlashuvi, emoji va memlar kabi raqamli ifodalarni mujassam etadi. Internet tili, bir tomondan, insonlar o’rtasida tez, qulay va ixcham aloqa o’rnatishga xizmat qiladi, bu esa zamonaviy jamiyatda samarali axborot almashuvini ta’minlaydi. Ammo, boshqa tomondan, bu hodisa adabiy til me’yorlariga, imlo qoidalariga va umumiy til madaniyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Yoshlar orasida internetda ishlatiladigan so’z va iboralar kundalik nutqqa kirib kelmoqda, bu esa nutqning soddalashuviga, ba’zan esa buzilishiga olib keladi. Shu sababli, internet tilining ijobiy va salbiy jihatlarini o’rganish, uning madaniyatimizdagi o’rni to’g’ri baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Til – xalqning ma’naviy boyligi, milliy o’zligining asosiy ko’zgusidir. Shunday ekan, internet tili orqali kirib kelayotgan begona unsurlarning haddan tashqari ko’payishi milliy tilning sofligiga tahdid solishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, internetda to’g’ri yozish, adabiy til me’yorlariga amal qilish, hamda foydalanuvchilarda til madaniyatiga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish dolzarb masaladir.

Til jamiyat bilan birga o’zgaradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa ushbu o’zgarish jarayonini tezlashtirib, yangi kommunikatsiya shakllarini yaratmoqda. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun bir qator muhim manbalar va tadqiqot usullari mavjud. Naomi S. Baron – “Always On: Language in an Online and Mobile World” (2008) asarida internet va mobil texnologiyalar ta’sirida til qanday o’zgarayotganini o’rganadi. Muallif virtual muloqot va an’anaviy yozishmalar o’rtasidagi tafovutlarni tahlil qilib, raqamli kommunikatsiyaning kelajagi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, ko’plab zamonaviy tadqiqotchilar internet tili fenomenini lingvistik, sotsiolingvistik va madaniy nuqtai nazardan o’rganishmoqda. Ularning fikricha, raqamli muloqot tili inson tafakkuriga, nutq madaniyatiga va ijtimoiy xulq-atvor shakllariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, internet tili faqat texnologik hodisa emas, balki zamonaviy jamiyatning madaniy va ijtimoiy o’zgarishlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik tizim sifatida qaralishi lozim.



Ijtimoiy tarmoqlar va yangi til shakllari

Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, TikTok, Telegram, Twitter) odamlarning kundalik nutqiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Bu platformalar orqali shakllanayotgan yangi til unsurlari nafaqat muloqot uslubini, balki jamiyatning axborot qabul qilish madaniyatini ham o’zgartirmoqda.

Birinchidan, qisqartirilgan yozuvlar va jargonlarning ommalashishi kuzatilmoqda. “OK”, “LOL”, “BTW”, “OMG” kabi xalqaro qisqartmalar internet foydalanuvchilari orasida keng tarqalgan. O’zbek tilida ham bu jarayon faollashib, “Zor” → “Zr”, “Rahmat” → “Raxm” kabi qisqartmalar paydo bo’ldi. Bundan tashqari, “mem”, “trend”, “like”, “repost” kabi so’zlar kundalik nutqqa kirib, ommaviylik kasb etmoqda.

Ikkinchidan, emojilar va stikerlardan foydalanish raqamli muloqotning ajralmas qismiga aylangan. 😊😭❤️ kabi belgilar so’zlarning o’rnini bosib, hissiyot va kayfiyatni ifodalashda muhim vositaga aylandi. Bu holat yozma nutqni soddalashtirsa-da, ba’zan ma’no buzilishi yoki tushunmovchiliklarga sabab bo’lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning qisqa, tezkor va hissiy shakli inson tafakkuri va til madaniyatiga ta’sir ko’rsatmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar bu jarayonni tilning tabiiy evolyutsiyasi deb baholasa, boshqalar uni yozma nutqning soddalashuvi va ifoda imkoniyatlarining kamayishi sifatida tanqid qiladilar. Shu bois, internet tili ijtimoiy va psixologik omillar bilan chambarchas bog’liq murakkab hodisa sifatida o’rganilishi lozim.

Internet tilining ijobiy va salbiy ta’siri: Internet va ijtimoiy tarmoqlar tili zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Bu holat til taraqqiyotiga ijobiy ta’sirlar bilan birga, ma’lum salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ijobiy jihatlar: Internet tili yoshlar orasida ijodkorlik, hazil-mutoyiba, qisqa va samarali fikr ifodalash ko’nikmasini rivojlantiradi. Masalan, “mem”, “trend”, “story”, “reel” kabi so’zlar orqali foydalanuvchilar ijtimoiy voqealarga o’z munosabatini tez va kreativ tarzda bildiradi. Bu esa kommunikativ madaniyatning yangi turini shakllantiradi. Shuningdek, inglizcha so’zlar va atamalarning kirib kelishi tilshunoslik nuqtai nazaridan o’zbek tilining global kontekstda boyishini ta’minlaydi.

Salbiy jihatlar: Biroq bu jarayonning salbiy tomonlari ham yo’q emas. Internet tili me’yorsiz qisqartmalar, sheva aralashmalari va grammatik xatolarning ko’payishiga olib kelmoqda. Natijada, adabiy til me’yorlariga e’tibor kamayib, so’z boyligi qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ba’zida yoshlar “ruxsat”, “rahmat” kabi so’zlarni “ruxs”, “raxm” tarzida yozib, tilning go’zalligini soddalashtirib yuborishmoqda. Bunday o’zgarishlar uzoq muddatda til madaniyatining pasayishiga sabab bo’lishi mumkin.

Ijtimoiy va madaniy ta’sir: Internet tili nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy madaniyatning ham ko’zgusiga aylandi. U muloqotdagi soddalik, tezlik va hissiy ifodaning ustuvorligini aks ettiradi. Shu bilan birga, odamlar orasidagi yuzma-yuz muloqot kamayib, til orqali hissiy yaqinlikni ifodalash qiyinlashmoqda. Bu esa jamiyatda virtual aloqa ustuvor bo’lib borayotganining belgisi sanaladi.

O’zbek xalq maqollari asosidagi tahliliy manbalar

1. “Til – elning ko’zgusi.”

Ushbu maqol tildagi o’zgarishlar jamiyatdagi madaniy va axloqiy o’zgarishlarni aks ettirishini bildiradi. Internet tili orqali xalqning tafakkuri, qadriyati va ijtimoiy munosabatlari qanday o’zgarayotganini ko’rish mumkin. Shu bois internetdagi muloqot madaniyati – el madaniyatining o’lchovidir.

2. “So’z – yurakdan chiqsa, yurakka yetar.”

Bu maqol raqamli muloqotda ham samimiyat va ma’naviy mazmunning ahamiyatini eslatadi. Emojilar va qisqa so’zlar so’zning chuqur ma’nosini to’liq bera olmasligi, his-tuyg’ular soddalashtirib borayotganini anglatadi.

3. “Yaxshi so’z – jon ozig’i.”

Internet muhitida salbiy kommentlar, haqoratli so’zlar va “hejterlik” holatlari ko’paygani kuzatiladi. Bu maqol esa ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy muloqot, madaniy ifoda va so’z mas’uliyatini eslatib turadi.

4. “El bilan el bo’l, til bilan til bo’l.”

Bu maqol tilni asrash va uni milliy birlik unsuri sifatida qadrlash zarurligini ta’kidlaydi. Internet tili global bo’lishiga qaramay, milliy tilning o’zligini saqlash muhimligini eslatadi. O’zbek tili global tarmoqlarda faol qo’llanilishi bilan milliy o’zlikning ifodasi bo’lib qoladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, internet va ijtimoiy tarmoqlar tili zamonaviy jamiyat til tizimining ajralmas qismiga aylandi. U muloqotni tezlashtirish, axborotni keng ommaga yetkazish va ijodkorlikni



rag‘batlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu hodisa til me’yorlarining buzilishi, grammatik soddalashuv va milliy tilning o‘ziga xosliklarini yo‘qotish xavfini ham tug‘diradi.

Demak, internet tili nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholanishi zarur. Har bir foydalanuvchi tilni to‘g‘ri, madaniyatli va mas’uliyat bilan qo‘llashga intilsa, raqamli makon milliy til taraqqiyotining yangi bosqichiga aylanadi. Xalqimizning “Til – elning ko‘zgusi” degan hikmati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan: tildagi har bir o‘zgarish — jamiyat taraqqiyotining aks-sadosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengaliyeva M, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o‘zgarishi (2025), International scientific journal “Modern science and research”.
2. Sharipova D, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta’siri (2025), Education and research in the era of digital transformation.
3. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
4. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
5. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
6. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
7. O‘zbek xalq maqollari to‘plami. (2005). Til va tafakkur hikmati. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
8. Nurmatov, A. (2019). Internet tili va zamonaviy kommunikatsiya madaniyati. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy maqolalar to‘plami.

INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TOPSHIRIQLARI: IJODLIK, INNOVATSIYA VA SAVODXONLIKNI INTEGRATSIYALASH

Irgasheva Umida Raimjanovna

Angren universiteti katta o‘qituvchi

Email: umidaigasheva1978@gmail.com

Annottsiya: Ushbu maqolada STEAM (fan, texnologiya, Muhandislik, san’at va matematika) vazifalari ingliz tili chet tili sifatida darslarida muhimligi tushuntirilgan. Ingliz tili darslariga STEAM texnologiyalarini integratsiyalash usullari ko‘rsatilgan. Tadqiqotda ingliz tilini o‘rgatishda STEAM vazifalari yordamida kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, nutqiy va leksik kompetensiyalarni rivojlantirish ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, innovatsiya, yaratish, reklama materiallari, baholash, ixtiro qilish.

STEAM TASKS IN ENGLISH CLASSES: INTEGRATING CREATIVITY, INNOVATION AND LITERACY

Irgasheva Umida Raimjanovna

Senior teacher, Angren university

Email: umidaigasheva1978@gmail.com

Abstract: This article explains the importance of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts and Mathematics) tasks in English as a Foreign Language lessons. It shows ways to integrate STEAM technologies into English lessons. The study emphasizes the development of communicative, linguistic, sociolinguistic, pragmatic, discourse and lexical competencies using STEAM tasks in English language teaching.

Key words: integrate, critical thinking, collaboration, innovation, create, promotional materials, evaluate, invent.

ЗАДАНИЯ STEAM НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ИНТЕГРАЦИЯ ТВОРЧЕСТВА, ИННОВАЦИЙ И ГРАМОТНОСТИ

Иргашева Умида Раимжановна

Старший преподаватель, Ангренский университет

Email: umidaigasheva1978@gmail.com